



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

INSON KAPITALINI FAOLLASHTIRISH ASOSIDA INNOVATSION SOHADA KORXONANI BOSHQARISH

Rasulov Sherzod Sharof o'g'li
JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrası o'qituvchisi

Maxkamova Sabina Zoirjon qizi
Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya:

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning davomida olingan asosiy xulosalar va uslubiy qoidalar inson kapitalini rivojlantirish va mamlakat innovatsion iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqishda foydalanish mumkin

Kalit so'zlar: Inson kapitali, innovatsiya, korxona, boshqaruv, davlat siyosati.

MANAGEMENT OF AN ENTERPRISE IN THE FIELD OF INNOVATION BASED ON ACTIVATION OF HUMAN CAPITAL

Abstract:

The practical significance of the study lies in the fact that the main conclusions and methodological rules obtained in its course can be used in the development of state policy on the development of human capital and the country's innovative economic development.

Keywords: Human capital, innovation, enterprise, management, state policy.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida eng muhim resurslar sifatida bilim, inson kapitali va innovatsiyalardan foydalanishga asoslangan iqtisodiy o'sishning yangi turi vujudga keldi. "Rivojlangan mamlakatlarning milliy boyligining atiga 5 foizi tabiiy resurslar, 18 foizi jismoniy (sanoat) kapital bo'lib, asosiy o'rinni 77 foizi bilim va uni boshqarish qobiliyati", ya'ni inson kapitali egallaydi. Inson kapitalidagi



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

tafovutlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasidagi, aholi farovonligi va umuman inson rivojlanishidagi tafovutlar, xususan, “jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlar farqining 10 foizdan 30 foizgacha tafovut mamlakatlar bo‘ylab aynan inson kapitali bilan izohlanadi”. Ommaviy ishlab chiqarish hukmron bo‘lgan sanoat iqtisodiyoti o‘rni bilim iqtisodiyoti egallab, unda ijodiy, aqliy mehnat hukmron bo‘lib, ishchi kuchi kapital sifatleri – inson kapitaliga ega bo‘ldi.

Jahon ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan inson kapitali masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida inson kapitalining rolini aniqlash, inson kapitalini baholashga uslubiy yondashuvlarni o‘rganish, inson kapitalini rivojlantirishga samarali investitsiyalarni o‘rganish, shuningdek iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish masalalari ushbu sohadagi tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2030-yilgacha belgilab berilgan strategik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga inson kapitalini rivojlantirish va joriy qilmasdan turib erishib bo‘lmaydi. Shu bois Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida inson kapitaliga sarmoya kiritishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “...Eng avvalo, islohotlar tashabbuskori bo‘lgan, strategik fikrga ega, chuqur bilim va yuksak malakaga ega yangi shakldagi kadrlarni tarbiyalashimiz kerak. Shu bois ta’limning barcha bo‘g‘inlarini - maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’limgacha isloh qila boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimizning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda fan va ta’lim muhim ahamiyatga ega”. Inson kapitalini rivojlantirish, uning markaziy bo‘g‘ini sifatida maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni takomillashtirish hozirgi vaqtda inson va mehnat salohiyatidan past darajada foydalanilayotgan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy oqsashini bartaraf etish imkoniyatlarini ochib beradi. “Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yagona to‘g‘ri yo‘lidir”. Shu sababli, kadrlar tayyorlash tizimi, mehnat samaradorligini oshirish va inson kapitalidan foydalanish muammolarini o‘rganish nafaqat hozirgi bosqichda, balki ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar tarkibida bir butun ustuvor vazifa sifatida ilgari surilmoqda.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, inson kapitali mantiqiy va reproduktiv jihatlarning birligida o'rganilishi lozim. Ushbu yondashuvni amalga oshirish makrodarajada umumiy va xususiy inson kapitalini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga va ularni hisobga olgan holda, inson kapitali va uning turlarini aniqlashtirish, tavsiflashga imkon beradi. Umumiy inson kapitalini to'plash ish bilan ta'minlanish, ko'nikma va malakalardan samarali foydalanishda zarur hisoblansa, o'ziga xos inson kapitalini shakllantirish esa - tashqi muhit talablari o'zgarishiga moslashish, to'plangan inson kapitalining innovatsion rivojlanish talablariga mos kelishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'min etishda muhim sanaladi.

2. "Inson kapitali darajasi - innovatsion taraqqiyot darajasi" matritsasiidan foydalanish inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishga imkon beradi. Inson kapitali rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda hududlarni innovatsion rivojlanish darajasi yuqoriligi, shuningdek, inson kapitalining rivojlanish darajasi past bo'lgan taqdirda esa innovatsion o'zgarishlarning past darajasi kuzatiladi.

3. Yoshlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va ularning innovatsion faolligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu kasbiy o'sish motivlarini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Yoshlarning (ikki yilgacha) ish tajribasini to'plashi va qo'shimcha kasb-hunar ta'limi muassasalarida qatnashishi amaliyotda qo'llaniladigan tayyor ilmiy ishlanmalarga ega bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

4. Inson kapitalini boshqarishda mavjud bo'lgan muammolarni va tashqi muhitning o'zgarishini tahlil qilish, nafaqat inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini, balki uning innovatsion jarayonlarga ta'sirini ham hisobga oladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqishni taqozo etadi. Inson kapitalini boshqarish uchun axborot va tashkiliy vositalardan kengroq foydalanishning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, tartibga solish sub'ektlari maqsad va vazifalarining xilma - xilligi, boshqaruv faoliyatidagi muammolarni hisobga olgan holda, "sheriklik - manfaatlar muvozanati", "moslashuvchanlik - qayta aloqa" kabi tamoyillarga tayanish zarurdir. Inson kapitalini boshqarish xususiyatlari, uni tartibga soluvchi ta'sirlarni amalga oshirish



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

borasida turli xil usul va vositalar mavjudligi sharoitida sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tabiatining murakkabligi inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish jarayonlarining ko'p bosqichli va o'zaro bog'liqlikda rivojlanishini ko'rsatadi.

5. Respublika hududlarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini boshqarishga amaliy malakalar markazi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, u ayni chog'da murakkab tuzilmaga ega bo'lsa-da, inson kapitali samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

6. Inson kapitali tarkibi va sifatini tashkil etuvchi ko'rsatkich va mezonlar tizimlashtirish asosida inson kapitali tashkil etuvchilari borasidagi nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, inson kapitalini har qanday tizim doirasi va darajasida iqtisodiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch sifatida baholash taklif qilinadi;

7. Inson kapitali va innovatsion taraqqiyotning o'zaro bog'liqligini baholash asosida "inson kapitali-innovatsion taraqqiyot darajasi" matritsasi asosida inson kapitalining sifatiga va innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va ularni baholashning uslubiy masalalari tadqiq etiladi, bu boradagi yondashuvlarni muayyan tizimga solishga erishiladi.

8. Milliy maqsad va manfaatlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi inson kapitalini boshqarish mexanizmi va institutlarini takomillashtirish asosida innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish algoritmi va uslubiyotidan foydalanish Respublika hududlarini inson kapitali sifati va samaradorligi bo'yicha reytingini tuzishga, mavjud muammolarni aniqlashga va bu borada tezkor choratadbirlar ko'rishga imkon beradi.

9. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan hududlar darajasida inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan jarayonlarni boshqarish matritsasiidan foydalanish hududlar va Respublika darajasida inson kapitali samardorligini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga va bu boradagi jarayonlarni doimiy monitoring qilishga imkon beradi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(1), 28–31.
2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(12), 38-42.
3. Sharifa, R., & Ilyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1097-1100.
4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1093-1096.
5. Расулова, Шарифа Гайбуллаевна. "ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ." Актуальные научные исследования в современном мире 3-8 (2019): 95-100.
6. Uglu, Rasulov Shavkat Sharof. "Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.11 (2021): 390-396.
7. Sharof, R. S. "Analysis of The State Employment Policy Aimed at The Employment of Labor Resources in The Republic of Uzbekistan." International Journal of Human Capital and Innovative Management 1.1 (2023): 54-61.
8. Расулов, Шавкат. "Ўзбекистон Республикасида меҳнат ресурсларининг иш билан бандлигининг жорий ҳолати таҳлили." Iqtisodiyot va ta'lim 23.2 (2022): 227-232.
9. Расулов, Шавкат Шароф Ўғли. "ТАДБИРКОРЛИК КОРХОНАЛАРИДА ЭКСПОРТ КЎЛАМИНИ ОШИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ." Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 6 (2024): 255-261.